

**O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
Respublika ta’lim markazi**

**Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan
foydalanish - o‘zbek tili ta’limi samaradorligini
oshirish omili**

**«O‘zbek tili» doimiy anjumani o‘n ikkinchi yig‘ini materiallari
(2013- yil 19- aprel)**

Toshkent – 2013

Ona tili ta'limini axborotlashtirish

Bugungi kunga kelib jamiyatning barcha sohalarini axborotlashtirish va undan unumli foydalanish davr talabi bo'lib qoldi. Axborot *signal, xabar* degan ma'nodan tashqari *tanlash natijasi, ilmiy bilish mahsuloti, borliq haqqoniylikni o'rganish vositasi, materiyani xossasi, uni atributi, obyekt va hodislarani keng ko'lamli yoritmasi* va boshqa ma'nolarga ega. Axborot va kommunikatsion texnologiyalari (AKT)ni ta'lim jarayonida samarali qo'llash uchun pedagogika fanining bo'limi bo'lmish – ta'limni axborotlashtirish fani zimmasiga olishi kerak.

O'quvchi (talaba)larga AKT yordamida aktiv ta'lim berish uchun:

- 1) AKT mutaxassislari bilan hamkorlikda metodik qo'llanmalar yaratishni tashkil etish;
- 2) o'quv jarayonini sinxron shaklda olib borishni tashkil etish;
- 3) o'quv jarayonini axborot texnologiyalari asosida tashkil etish kerak.

Ona tili ta'limini axborotlashtirishni amalga oshirish quyidagi muammo va masalalarni yechishga olib keladi:

- ✓ AKTni qo'llashdagi ona tilini o'qitishning usul va vositalarini, innovatsion modellarini va mavjud pedagogik texnologiyalarni asoslash va yaratish;
- ✓ o'quvchi(talaba)ning intellektual potensialini o'stirishga yo'naltirilgan ona tili o'qitishning uslubiy tizimini ishlab chiqish kerakki, bular o'quvchiga mustaqil ravishda ma'lumotlar resursini terish, qayta ishlash, uzatish, saqlash faoliyatini amalga oshiradigan bo'lishiga imkon yaratsin;
- ✓ ona tili ta'limga tegishli tadqiqotlar, elektron vositalarni ko'rgazma prototiplarini ishlab chiqish, jumladan dasturiy instrumental vositalar va tizimlarini yaratish;
- ✓ talaba intellektual salohiyatini aniqlash uchun psixologo-pedagogik testlash va tashxislovchi uslubiy nazoratni yaratish va talabalarning bilim darajasini baholash;
- ✓ ona tili ta'limi sistemasini boshqarish mexanizmini takomillashtirish, jumladan ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan bazasi va banki asosida kommunikatsion tarmoqlarni ishlatish.

Ona tili ta'limini axborotlashtirishni tadqiq etish, umuman olganda ko'nikmaga aylangan aniq tushunchalarni foydalanishni nazarda tutadi.